

## TA'LIMDA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA JADALLASHTIRISH, INDIVIDUALLASHTIRISH VA TABAQALASHTIRISHGA ERISHISH

**Kuchkarov Bahodir Tashmurodovich**  
O'R QK Akademiyasi katta o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Maqola ta'limda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda jadallashtirish, individuallashtirish va tabaqalashtirishga erishish tushunchalarining mazmuni asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, jadallashtirish, ta'lim, individuallashtirish, didaktik, metod, tizim.

### АННОТАЦИЯ

В статье обосновано содержание понятий интенсификации, индивидуализации и достижения разделения в развитии общекультурных компетенций в образовании.

**Ключевые слова:** компетентность, интенсификация, обучение, индивидуализация, дидактический, метод, система.

### ABSTRACT

The article substantiates the content of the concepts of acceleration, individualization and differentiation in the development of universal competencies in education.

**Keywords:** competence, acceleration, training, individualization, didactic, method, system.

Ta'limning samaradorligi ma'lumot mazmuniga didaktik ishlov berish, ta'lim prinsiplariga qat'iy rioya qilishga bog'liq bo'lganidek ta'lim metodlarini to'g'ri tanlashga ham dahildordir. Xo'sh, shunday ekan, ta'lim metodlarini qanday tushunmoq kerak. Ta'lim metodlarini mutaxassislar turlicha talqin etishdi: ba'zi didaktlar ta'lim metodlarini tinglovchilarni bilmaslikdan bilimga borish yo'li desa ayrim olimlar esa ularni o'qituvchi va tinglovchi faoliyatini o'zaro bog'lovchi usullar deb qarashadi. Ta'lim metodlarini o'quv ishlari, majmui shuningdek ta'lim mazmuni shaklida qarash g'oyasi ham bor. Bu qarashlarning qay biri asosida ta'lim metodlari mohiyati, o'quv tarbiya jarayonidagi funksiyalarini batafsilroq tasavvur etish mumkin.

**Metod**-yunoncha atama bo'lib, usul, maqsadga erishish yo'li degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi.

Ta'lim metodlari o'quv - tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, ularsiz ta'lim maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirish mumkin emas. Ularga ko'ra ma'lumot mazmunini o'zlashtirishga mos faoliyat turlari tanlanadi, ta'lim jarayonida kursantlarning o'quv - biluv faoliyatining amal qilishi tasavvur etiladi, ta'lim sube'ktlari o'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro muvofiqlashadi.

Differentsial ta'lim– bu bir auditoriyada har xil qobiliyatga ega bulgan kursantlarni o'qitish texnologiyasi, individual bo'lgan kursant shaxsini rivojlanishi uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish. Differentsiatsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, bir butun narsani turli qism, shakl va darajalarga bo'lib tabaqalashtirish degani.

Г.К.Селевко tadqiqotlarida o'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o'zida bilim darajasi bir xil bo'lgan, u yoki bu jihatdan o'quv jarayonida umumiy sifatlarga ega bo'lgan kursantlar guruhi bilan o'qituvchi ishlaydi. O'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta'minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi.

Tabaqalashtirilgan differentsial ta'lim quyidagilarni ko'zda tutadi:

- \* ta'lim oluvchilarning umumta'lim bazaviy bilimlarga ega bo'lishini;
- \* umumta'lim bazaviy bilimlar o'qitishni differentsallashtirish va individuallashtirish uchun asos bo'lishini;
- \* umumta'lim bazaviy bilimlarga bo'lgan talablarning hamma uchun bir bo'lishini;
- \* ta'lim oluvchilar qanday umumta'lim bazaviy bilimlarga ega bo'lishlari kerakligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini, ya'ni natijalar tizimi ular uchun “ochiq” bo'lishi kerak;
- \* umumta'lim bazaviy bilimlar qatorida ta'lim oluvchilarga yuqori tayyorgarlikni ta'minlovchi o'quv fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan mazmunga ega bo'lgan bilimlar tavsiya etiladi.

O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi - o'quv jarayonini tashkil etish bo'lib, unda o'qitish usullari, sur'atni tanlash ta'lim oluvchining individual xususiyatlari bilan bog'lanadi, unda turli o'quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy tadbirlardan foydalaniladi. Individual o'qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va sur'ati ta'lim oluvchining xususiyatlariga moslashtiriladi. Ushbu texnologiyada pedagog faqat birgina kursant bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, bir kursant esa faqat o'qitish vositalari (kitoblar, kompyuter va boshq.) bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Barcha fanlarda individuallashtirilgan texnologiyadan foydalanish va individual ishlarning o'quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integratsiyalash mumkin.

А.С. Гриневская, В.Д. Шадриков tadqiqotlarida individual o'qitish o'quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi.

Unda:

- \* pedagog faqat birgina kursant bilan o'zaro munosabatda bo'ladi;
- \* bir kursant faqat o'qitish vositalari (kitoblar, kompyuter va b.) bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

Individual o'qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va surati kursantning xususiyatlariga moslashtiriladi.

Shaxsiy yondoshish deganda:

- \* pedagogikaning tamoyili bo'lib, unga ko'ra pedagog o'quv- tarbiya ishlari jarayonida kursantlarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holga ayrim kursantlar bilan individual model bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lish hamda individual xususiyatlarga asoslanish;
- \* o'quv jarayonida kursantlarning individual xususiyatini hisobga olish;
- \* barcha kursantlarning rivojlanishigina emas, balki har bir kursantga alohida rivojlanish uchun psixologik-pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi.

O'qitishni individuallashtirish o'quv jarayonini tashkil etish bo'lib, unda o'qitish usullari, suratini tanlash kursantning individual xususiyatlari bilan bog'lanadi.

Shunday qilib, didaktika bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra o'qitishni individuallashtirish o'quv jarayonining shunday tashkil qilinishi, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

O'qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyalarida asoslab berildi:

- \* А.С. Гриневская ning moslashuvchan o'qitish texnologiyasi;
- \* В.Д. Шадриков ning individuallikka qaratilgan reja asosida o'qitish texnologiyasi.

А.С. Гриневская o'zining moslashuvchan o'qitish tizimini auditoriya-dars tizimida tashkil etish va unda o'qituvchi 60-80% vaqtini kursantlar bilan individual ishlashga ajratish mumkinligini qayd qiladi. А.С. Гриневская metodikasining o'ziga xosligi uning darsni muayyan g'ayriodatiy qurilma asosida tashkil etishidir:

Birinchi qism — barchani o'qitish;

Ikkinchi qism — ikki parallel jarayon: kursantlarning mustaqil ishlari va o'qituvchining ayrim kursantlar bilan individual ishlashi, ya'ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi jufti o'qituvchi bo'lib ishlash, moslashuvchan ko'p qirrali vazifalar va b.

В.Д.Шадриков gipotezasiga ko'ra, agar ta'lim oluvchiga murakkablashib boruvchi vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o'rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin ta'lim oluvchiga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, kursantlar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi.

В.Д.Шадриков metodikasi asosini har bir kursantning qobiliyatiga qarab o'qitishga imkon beradigan olti darajadagi o'quv rejasi, dastur va metodik qo'llanma tashkil etadi. Har bir fanning murakkablik darajasiga ko'ra kuchi etgan variantni tanlab olib, kursantlar auditoriyada tez-tez almashib turadi va fanning hajmi va mazmunini qo'ldan chiqarmay birgalikda o'quv dasturini o'zlashtirishga harakat qiladilar. Murakkablik darajasini tanlash tezlikda amalga oshiriladi va «ba'zan» uni amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki u auditoriyadagi kursantlarning tenglashish, qobiliyati holatiga bog'liq bo'ladi.

Bu o'qitishni individuallashtirish mualliflik texnologiyasi negizida umumiy tamoyillar mavjud:

- \* individuallashtirish o'qitish jarayoni strategiyasidir;
- \* individuallashtirish—individuallikni shakllantirishning zaruriy omili;
- \* barcha o'rganiladigan fanlarda individuallashtirilgan o'qitishdan foydalanishning mumkinligi;

- \* individual ishlarni o'quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integratsiyalash;
- \* individual suratda, uslubda o'rganish.

Individuallashtirish texnologiyasining umumiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi;

- \* o'zlashtira olmaslikka olib keluvchi omillarni qayd qilish;
- \* fikrlash jarayonida bilim, malaka, ko'nikmalarni egallash asnosida individual kamchiliklarni tuzata olish usullari;
- \* oila tarbiyasidagi motivatsiyaning bo'linmasligi hamda iroda sustligi kamchiliklarini qayd qilish va yenga olish;
- \* qobiliyatli va iste'dodli kursantlarga nisbatan o'quv jarayonini optimallashtirish (ijodiy faoliyat, auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarni hisobga olish);
- \* o'qitish jarayonini tanlash erkinligini berish;
- \* umumiy o'quv malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish;
- \* kursantlarning o'z-o'ziga mos baho bera olishini shakllantirish;
- \* o'qitishning texnik vositalaridan, shuningdek, EHMdan foydalanish.

Pedagogik nazariyada umummadaniy kompetentsiya-bu o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi bilish, madaniyatning turli sohalaridagi hodisalar to'g'risida mustaqil va asosli mulohazalar uchun, boshqa madaniyatlar vakillari bilan muloqot qilish uchun yetarli bo'lgan ta'lim darajasi sifatida belgilanadi. Biz umummadaniy kompetentsiyani madaniy makonni o'zlashtirish tajribasi, ta'lim olganlik darajasi, tarbiyalangan va rivojlanganlik bilan shartlanuvchi, madaniy etalonlardan kognitiv, dunyoqarashga, hayotga, kasbga oid muammolarini hal qilishda baholash mezonlari sifatida foydalanishga yo'naltirilgan kursant shaxsining integral qobiliyati sifatida belgilaymiz.

Yuqorida aytilganlar umummadaniy kompetentsiyalar kasbiy faoliyat sohasidan qattiq nazar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchisiga qo'yiladigan umumiy, xarakterli talabni aks ettiradi degan birinchi xulosaga kelishimizga imkon beradi. Ijtimoiy

hayotga kirgan yosh mutaxassis ushbu jamiyatda ustivor bo'lgan qadriyatlarni: vatanparvarlik va fuqarolikni, yuqori axloqiy xususiyatlarni, umumiy lingvistik, huquqiy madaniyatni, gumanizm va ekologik ong qadriyatlarini o'zlashtirishidir.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, faoliyat tajribasi va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, umummadaniy kompetentsiyaning tuzilishi uch komponentli bo'lib, kognitiv, qadriyatli-yo'naltiruvchi va kommunikativ-faoliyatga oid tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Ular mazmunli tarkibga ega va ularni baholash mumkin. Umummadaniy kompetentsiyalarning bir qismini va ularning tarkibiy qismlarini shakllantirish o'ziga xosliklarini tadqiq qilish uchun real natijadan kerakli natijaga o'tish uchun oliy ta'lim natijalariga qo'yiladigan talablarni o'zgartirish kerak degan fikr muhim ahamiyatga egadir. Ushbu talablar mohiyati rejalashtirilgan natijani tanlash bilan bog'liq bo'lib, u madaniyatning ko'plab asosiy manbalari to'g'risida yuzaki xabardor bo'lish yoki ularning oz sonini chuqur bilishdan iborat bo'lishi mumkin.

Umummadaniy kompetentsiyalarning yana bir tarkibiy qismi bu axborot manbalarini boshqarish, ularni ma'lum mezonlarga, shu jumladan ma'lumotlarning ishonchliligi mezoniga muvofiq kognitiv muammolarni hal qilish uchun tanlash qobiliyatidir.

Kursantlarning nutq madaniyati umummadaniy kompetentsiyalarning juda muhim tarkibiy qismidir. Umummadaniy kompetentsiyaning sanab o'tilgan tarkibiy qismlarining har biri barcha o'quv fanlarini o'rganish jarayonida va kursantlar va tinglovchilarning darsdan tashqari faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan oliy ta'limning nisbatan mustaqil maqsadi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. /O'zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishdagi nutqi.//Vatanparvar, 2023. 10 yanvar.
2. Psixologik-pedagogik atamalar izohli lug'ati. – T.: O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019 y. –116 b.
3. Satib-Aldiev A. Ofitserning pedagogik madaniyati. O'quv qo'llanma. – Toshkent OUQBYu, 2013. – 38 b.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003, 5-jild. – 704 bet.
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
7. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)